


100-300

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”



(OTM rekord)

«28» 08

2025 yil



BADIIY LOYIHALASH

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi: 210 000 – San‘at
Mutaxisisslik: 70210401 –Dizayn (kostyum dizayni)

Toshkent 2025

Fan/modul kodi BL 112314		Semestr 1,2,3	ECTS-kreditlar 14 (6,4,4)	
Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4, 4, 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Badiiy loyihalash	156	264	420
2.	<p>I.Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – kostyum elementlarini va liboslar to'plamlarini badiiy loyihalashda kreativ fikrlash va ijod qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, funksional, texnik – iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hamda yuksak badiiy-estetik ko'rinishga ega kostyum shakllarni yaratish va dizayn-loyihalasini ishlab chiqishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - ijodiy tasavvurni va obrazli-konstruktiv tafakkurni rivojlantirish, badiiy loyihalashni ijodiy vazifasini echish uchun turli ijodiy manbaalarni va kreativ yo'llarni topish, evristikani turli usullaringi o'rganish va ularni dizayn-loyihalasini ishlab chiqishda qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p> <p>II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> Dizayn – loyiha № 1. Kostyumni loyihalashda transformatsiyalash usullari asosida kiyim loyihalasini ishlab chiqish. Kostyumni badiiy loyihalashning nazariyasi taxlil qilish; Badiiy loyihalash usullari; Transformatsiyalash usullarini qollab kiyim loyihalasini konsepsiyasini ishlab chiqish. To'plam Moodboardini ishlab chiqish Badiiy loyihalashning asosiy bosqichlari; Badiiy eskizlarni yaratish. Turli matolardan kostyum elementlarini loyihalash xususiyatlari. Yangi texnologik usullarni taqdim etish. Dizayn -loyiha bo'yicha Sketchbooklarni tayyorlash. Dizayn – loyiha № 2. Iste'molchi talablarini inobatga olgan xolda muayyan vazifali liboslar to'plamlarini ishlab chiqish. Vazifali kiyim turlarini o'rganish va tahlil qilish. Maxsus kiyimlarni assortiment turlari va uning klassifikatsiyasi ishlab chiqish. Vazifali liboslar to'plami soha bo'yicha konsepsiyasini ishlab chiqish. 			

15. Model-analoglarni to'plash va tahlil qilish.(eskiz)
16. Analoglar asosida soha bo'yicha kiyim shakli va qollanilgan detallarni uslublar boyicha taxlil qilish.
17. Maxsus kiyimlar uchun qo'llanadiga mato turlarini , qoshimcha maxsus aksessuar, taqilmalarni o'rganish.
18. Zamonaviy materiallar va texnologiyalar bilan ishlash.
19. Dizayn -loyihalashda Sketchbooklarni tayyorlash
20. Turli matolardan libosga mos bo'lgan bosh kiyimlar loyihagini ishlab chiqish.
21. **Dizayn – loyiha № 3. O'zbekiston san'ati va hunarmandchiligidan ilhomlanish.**
22. O'zbek milliy kostyumi elementlarini qo'llab zamonaviy liboslar to'plamini konsepsiyasini ishlab chiqish.
23. Milliy kostyum bichimini hududlar bo'yicha analoglar asosida o'rganish va tahlil qilish.
24. Ijodiy manbaa tanlash asoslash va kiyim shakliga transformatsiyalsh
25. Tarixiy kostyumlarning konstruktiv-dekorativ yechimini, ishlatilgan matolarini va bezaklarini qo'llab zamonaviy liboslar yaratish.
26. Liboslar to'plami uchun aksessuarlarni tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda dizayn yo'nalishidagi Evropa etakchi oliy o'quv yurtlari tajribasiga asoslanib, har bir semestr davomida bajariladigan amaliy mashg'ulotlar, talabalar tomonidan dizayn - loyiha ko'rinishida topshiriladi.

Dizayn-loyihani bajarish jarayoni quyidagi o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat:

- muammoviy vaziyatini anglash, masalani echimini tamoyillarini va vositalarini aniqlash, “muhit” loyihalash tamoyillari, dizayn ekologiyasini inobatga olib, loyihalashni real madaniy–tarixiy kontekstga kiritish;
- dastlabki loyiha tahlili: badiiy loyihalashda ijodiy konsepsiya, kostyum elementlari va to'plamlarni yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitining turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, adabiyot, kino, me'morchilik, tarixiy va xalq kostyumlari, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va b. foydalanish, kostyum dizaynida tarixiy merosni tadqiqot qilish va foydalanish zamonaviy usullari;
- eskiz loyihalash: eskiz loyihalash va amaliy grafikada foydalaniladigan grafik tasvirlash vositalari, texnik eskizlarni yaratish (qirqimlar, detallar, chiziqalar, choklar, bezak va xajmiy elementlarni tasvirlash), Sketchbook va eskizlar albomi tayyorlash;
- loyiha qismi (konstruktorlik va texnologik), kostyum elementlarini loyihalashda kombinator usullari: kombinatorika, transformasiya, kinetizm, razmersiz kiyim ishlab chiqish, yaxlit bo'lak matodan kiyim yaratish; model

	<p>usuli, dekonstruksiya usuli, har xil assortimentlarning bir-biriga kirishishi va qoʻshilish yoʻnalishlarini rivojlantirish, konstruktor-texnologik qism, liboslar toʻplamining texnologik ishlov berish xususiyatlari va tayyorlanishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • loyihani taqdimotini tayyorlash. <p>III. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Noanʼanaviy materiallardan bir marta foydalaniladigan kiyim loyihalash. 2. Turli matolar badiiy bezagini ishlab chiqish. 3. Oʻzbek amaliy bezak sanʼati, tarixiy liboslar, arxitektura, tasviriy sanʼat, tabiat shakllari dizaynini tahlil etish va ulardan zamonaviy liboslar yaratishda ijodiy manbaalar sifatida foydalanish. 4. Loyiha boʻyicha Sketchbook, eskizlar albomi va grafik ishlarni bajarish. 5. Reklama va kompyuter grafikasining zamonaviy dasturlarini qoʻllab loyihani taqdimotini va Sketchbook tayyorlash. 6. Yangi assortiment turlarini yaratish muammolari va rivojlanish tamoyillari. <p>Mustakil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan loyiha boʻyicha Sketchbook, eskizlar albomi va grafik ishlarni tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>IV. Taʼlim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> – kostyumni badiiy loyihalash nazariyasi asoslari va usullari; – badiiy loyihalashning asosiy bosqichlari; – badiiy loyihalashda ijodiy konsepsiya; – shakl morfologiyasi va shakl hosil qilish qonuniyatlari; – kostyum shaklini xosil qilish vositalari va bogʻlanish turlari asosiy kategoriyalari; – kostyum dizaynida tarixiy merosni tadqiqot qilish va foydalanish zamonaviy usullari; – yangi assortiment turlarini yaratish muammolari va rivojlanish tamoyillari <i>haqida tasavvurga ega boʻlishi</i>; – zamonaviy materiallar va texnologiyalarni; – turli matolardan liboslarni loyihalash xususiyatlarini, – kostyum kompozitsiyasida badiiy tizimlar va ijodiy manbaalarni; – dizayn asarlarini yaratishda arxiv materiallari va ARM maʼlumotlaridan foydalanishni (etnografiya, xalq anʼanalari, urf-odatlar, kostyum va boshqalar); – notoʻqima matolar, tabiiy va sunʼiy moʻyna, turli tukli matolar, tabiiy va sunʼiy gazlamalar bilan ishlashni;

	<ul style="list-style-type: none"> – turli matolardan libosga mos bo'lgan bosh va oyoq kiyimlar ishlab chiqishni; – kostyumni loyihalashda transformasiyalash usullarini; – tarixiy liboslarning konstruktiv-dekorativ yechimini; – ikkilamchi materiallardan zamonaviy liboslarni loyihalash usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; – dizayn-loyihalashda Sketchbooklarni tayyorlash; – kostyumning uyg'unlashtirish vositalari, g'oyadagi obrazning emosional ifodaliligiga erishish; – turli matolar badiiy bezagini ishlab chiqish; – kostyumda ansambl va kompleklarni yaratish; – grafik usulida liboslar to'plamlarini yaratish; – ijodiy manbaalar bilan ishlash va ularni zamonaviy libos modellashtirishda foydalanish; – asosiy va maket materiallardan liboslar to'plamini bajarish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. – iste'molchi talablarini inobatga olgan holda muayyan vazifali liboslar to'plamlarini ishlab chiqish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari; • interfoal keys-stadilar; • kichik guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • jamoa bo'lib ishlash; • video roliklar tayyorlash; • individual ishlash.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarini to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Hywel Davies. Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2010 2. Zarida Zaman. New Fashion Designers' Sketchbooks. – United Kingdom, London, 2011 3. Хасанбаева Г.К. Костюм дизайни. Дарслик – Т. : ТТЕСИ, 2013.-247б. 4. Л.А.Сафина, Л.М.Тухбатулина, В.В.Хамматова – Проектирование костюма – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.-283 стр.

	<p>Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Н.С. Макаеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум. – М.: Академия, 2008.-230 с. 6. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. - М.: Академия, 2000.-184 с 7. Ермилова В.В. «Композиция костюма» М. Академия, 2003. 8. Пармон.Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. – М.: «Триада плюс», 2002. – 312 с., 258 ил. 9. Tomoko Nakamichi, Patter Magic-L.: EC1V 1LR-2013. -53 p. 10. Hywee Davies, Fashin Designers Skeatchbooks- L.: Laurence King Publishing Ltd-2010 11. Зеленг Ш. Век модельеров 1900- 1999 – Штутгарт: 2001. 12. N.Sodiqova, - O‘zbek milliy kiyimlari XIX- XX asrlar- T.: G‘.G‘ulom – 2006. -192 b. 13. Саймон Треверс-Спенсер и З.Заман, Справочник дизайнера по формам и стилям одежды-М.: Рипол классик, 2008 <p>Axborat manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 14. https://www.ntnu.no/studier/emner/TPD4127?utm_source=chatgpt.com#tab=omEmnet 15. https://www.ntnu.edu/studies/courses/TEK1310?utm_source=chatgpt.com#tab=omEmnet 16. http://titli.uz – Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti sayti. 17. https://www.polyu.edu.hk/study/pg/tpg/2026/14107-ffs-pfs
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut Kengashining 2025 yil “<u>21</u>” <u>08</u> dagi “<u>1</u>”-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar: U. T.Muminova - TTYSI “ Moda va dizayn” kafedrasi professori, DSc</p>
9.	<p>Taqrizchilar: “TDV style” MCHJ raxbari TTYSI, «Moda va dizayn» kafedrasi professori, f.f.n.</p> <p style="text-align: right;">D.V.Tomilin U.S.Raxmatullaeva</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP -300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan

№	OTM nomi	QS	THE	Havolalar	Sillabusdagi mavzu nomi	Chet el sillabusdagi mavzular
1	Norvegiya fan va texnologiya universiteti	264	301–350	https://www.ntnu.no/studier/emner/TPD4127?utm_source=chatgpt.com#tab=omEmnet	2,3,9 mavzular keltirilgan	Production and Materials
2	Norvegiya fan va texnologiya universiteti	26	301–350	https://www.ntnu.edu/studies/courses/TEK1310?utm_source=chatgpt.com#tab=omEmnet https://www.ntnu.edu/studies/courses/TEK1310?utm_source=chatgpt.com#tab=omEmnet	3,5,18 mavzular keltirilgan	Design methodology and aesthetics for product design
	PolyU (The Hong Kong Polytechnic University)	57	79	https://www.polyu.edu.hk/study/pg/tpg/2026/14107-ffs-pfs	14,17,18, 23 mavzular kiritilgan	MA Fashion and Textile Design